

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

### DASHTI QIPCHOQDAGI SIYOSIY-ETNIK JARAYONLARNING ZARAFSHON VOHASI TOPONIMIKASIDA AKS ETISHINING O'RGANILISHI

*Azimova Farangis Shokirovna,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Dashti Qipchoq aholisi va sulola a'zolarining o'lkamizga kelib o'rnashishi, hukmronlikka asos solinish jarayonlari, sulola a'zolari tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy sohadagi amallar hamda Qipchoqlarning Zarafshon hududi toponimikasiga bugungi kundagi ta'siri bayon etib beriladi.*

*Kalit so'zlar: Urug', etnik jarayon, etnonim, qabila birikmalari, toponimlar, siyosiy-etnik jarayon.*

### ИЗУЧЕНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ПОЛИТИКО-ЭТНИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ДАШТИ КИПЧОКЕ В ТОПОНИМИКЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА

*Азимова Фарангис Шокировна,*

*Шароф Рашидова Самаркандский государственный университет докторант (PhD)*

*Аннотация. В данной статье описывается расселение дашти кипчаков и членов династии в нашей стране, процессы установления правления, действия в социальной сфере, осуществляемые членами династии, а также влияние кипчаков на топонимику Зарафшанского региона сегодня.*

*Ключевые слова: Семья, этнический процесс, этноним, племенные объединения, топонимы, политико-этнический процесс.*

### THE STUDY OF THE REFLECTION OF THE POLITICAL-ETHNIC PROCESSES IN DASHTI KIPCHOK IN THE TOPONYMICS OF ZARAFSHAN OASIS

*Azimova Farangis Shokirovna,*

*Sharof Rashidov Samarkand State University doctoral candidate (PhD)*

*Annotation. In this article, the settlement of Dashti Kipchaks and members of the dynasty in our country, the processes of establishing the rule, actions in the social sphere carried out by the members of the dynasty, and the influence of the Kipchaks on the toponymy of the Zarafshan region today.*

*Key words: Race, ethnic process, ethnonym, tribal combinations, toponyms, political-ethnic process.*

*Kirish. O'zbek davlatchiligi tarixida Dashti qipchoqliklar va u yerdan o'lkamizga kirib kelgan urug'lar sezilarli ta'sirga ega hisoblanadi. Shayboniyxon boshchiligidagi qipchoq qavmlari temuriylar saltanatiga xotima beradi. Bu avvalroq O'zbek ulusi davlati asoschisi Abulxayrxon davridan boshlangan siyosiy faoliyatning natijasi edi. Xususan Xondamirning "Habib us-siyar" asarida shunday keltiriladi: "1460-yilda Abulxayron Abu Saidning raqibi temuriyzoda Muhammad Jo'kiyga (1449-1464) Turkiston, Sayram, Toshkent, Axsikat, Shoxruxiyani egallab olishida harbiy yordam beradi. Shunga o'xshash yordam qo'lini u Xorazm uchun Abu Said bilan kurashga kirishgan Sulton Husaynga (1469-1506) ham cho'zadi.[1]*

*Muhammad Shayboniyxon temuriylar istilosiga alohida e'tibor qaratgan. Fazlulloh ibn Ro'zbehxon "Mehmonmayi Buxoro" asarida Shayboniyxonning shu asnodagi fikrini keltirib o'tadi: "Agar Temurbek avlodlaridan ba'zi mulklarni tortib olgan bo'lsak ham, mulkparastlik va kichik mulklarga qanoat qilmasligimizdan emas, balki taqdir hukmiga ko'ra shunday bo'ldi. Zero, qazo merosiy mulkni yana bizning qo'limizga va ixtiyorimizga qaytishini taqozo qiladi".[2] Umuman olganda aynan shayboniylar va ular bilan qipchoqlar oqimining kirib kelishi yangi davlatchilikni vujudga keltiribgina qolmay, o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasiga ham ta'sir etdi.*

*Shayboniylar zamoni davlat boshqaruvi haqida so'z ketganda temuriylar va ayniqsa chingiziylar bosqinidan avvalgi zamonlardagi kabi davlat idoralariaro taqsimotida mavjud bo'lgan aniq ko'rinishlar to'g'risida so'z yuritish qiyinroq. Buning bosh sababi, bir tomondan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi turmush tarzi an'analari mustahkam Jo'chi ulusidagi Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shayboniylar*

faoliyatida saqlanib qolganligidadir. Aniqroq aytganda, shayboniylarning Dashti qipchoqdan Movarounnahrqa kirib kelishlari bilan mazkur birinchi makonda mavjud ayrim an'analarning ham Turkiston markaziga tarqalishi uchun sharoit tug'ilgandi.[3]

Ro'zbehxon shayboniylar davri Sirdaryo daryosi imkoniyatlari haqida so'z yuritar ekan, bu daryoning kechuv joylaridan, irmoqlaridan ko'plab katta anhorlar qazilgani va ular suvi bilan atrofdagi ekinzorlar sug'orilganini alohida ta'kidlaydi. Zarafshon vohasida Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor kabi suv ayrig'ichlari, Nurota hududida qurilgan tom ham aynan sulola xizmati evaziga amalga oshirilgan. Fazlulloh ibn Rozbekxonga homiylik qilgan Muahammad Shayboniyxon 1502-yilda Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilish yerida ko'prik-suv ayrig'ichini bino qildirgan. Bu bilan qipchoq hukmdorlar aholining ijtimoiy hayotiga befarq bo'lmagani ko'rinadi. Umuman olganda, Muhammad Shayboniyxon hukmronlik qilgan yillari va hatto uning o'limidan so'ng mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik yillarida ham sun'iy sug'orish ishlarining ahamiyati yo'qolmagan. Buni biz XVI asrning 20-yillarida tuzilgan vaqfnomalardan birida keltirilgan ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, birgina Kesh viloyatida Qashqadaryo irmoqlari bo'lmish Surxob, Rudakdan atrof qishloqlarga qazilgan o'ndan ortiq kanallar ishlab turgani ma'lum.[4] Lekin sun'iy sug'orish ishlari gurkirab rivojlangan payt bu XVI asr Abdullaxon II davriga to'g'ri keladi. Fikrimiz isboti sifatida 1582-yili Zarafshon daryosida qurilgan Karmana ko'prigi (Puli Karmana)- suv ayrig'ichi, 1583-yili Nurota tog'larida qurilgan Oqchob suv ombori, Zarafshon daryosi suvini tegishli hududlarga taqsimlashda katta ahamiyat kasb etgan Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko'prik-suv ayrig'ichlari, Zarafshon daryosining Jizzax vohasigacha tortilgan va Sangzor daryosi bilan tutashuvchi Tuyatortar kanali, Murg'ob daryosi vohasidagi Hovuzixon suv ombori, 1556-1557-yillari qurilgan va Samanjuq dashtini obodonlashtirishda katta ahamiyat kasb etgan Xo'ja Kaab kanali, 1556-1560-yillarda bunyod etilgan Afshona kanali, 1558-1559-yillari Amudaryodan Chorjo'ygacha tortilgan, Murg'ob daryosidan Marv atrofiga kanallar chiqazilgan. Vaholangki sulolaning bu borada o'tkazgan tadbirlari rang-barangdir.

Dashti Qipchoqdan Movarounnahrqa kirib kelgan xalqlar shuningdek Samarqand viloyati hududi toponimikasida ham o'z izini qoldirgan. Jumladan hozirgi kunda ham viloyatning Bulung'ur, Jomboy, Payariq tumanlaridagi joy nomlarida "Qorakesak" toponimi mavjud. Ushbu tumanlarda aynan shu nomdagi qishloqlar bor. Ma'lum bo'lishicha qipchoqlarning qoraqipchoq urug'i tarkibida qorakesak tarmog'i bo'lgan. Qozoqlarda esa qorakesak O'rta Ordaning asosiy qabilalaridan biri.[5] Shu bilan birga qozoqlarning arg'in va olchin qabilalari tarkibida ham qorakesak degan urug' bo'lgan. Umuman, kesak bir qancha turkiy xalqlarda keng tarqalgan etnonim. Vaholangki yana bir Pastdarg'om tumanidagi Qovan, Gumbaz, Batal qishloqlari misolida olsak, Aslida bular ham qoraqipchoq urug'ining tarmoqlari nomlaridan olingandir. Qipchoq urug'idan shakllangan toponimlar qatoriga Qiyra urug'ini keltirib o'tsak ham joiz bo'ladi. Sababi Zarafshon vohasida Bo'z qiyra yoki Yuqoriqiyra va Qo'riqqiyra yoki Pastqiyra nomli toponimlar mavjuddir. Qiyra ham aslida qorovuz-qipchoq urug'ining bir tarmog'ini hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu qishloqlar nomlari ham urug' nomidan keyinchalik joy nomiga aylangan. [6] Qipchoq qabilalarining tarkibida yana bir Qarmish nomli etnonim ham mavjud bo'lgan. Samarqand viloyati Tayloq tumanida ham aynan shu nomli qishloqni uchratish mumkin.[7] Yana bir tabirni Elaton nomli toponim bilan bog'lash mumkin. Bugungi kunda Samarqand viloyati Jomboy tumanida aynan shu nomli qishloq bo'lib, bu nom qipchoqlarning elatan degan urug' nomidan kelib chiqqan. Zarafshon qipchoqlari urug'I nomi Payariq tumanidagi Cholmo'yin qishlog'ida ham o'z aksini topadi. Manbalarga ko'ra Cholmo'yin Zarafshon qipchoqlari to'g'uzuruv yoki to'g'izboy urug'ining bir bo'limi hisoblanadi. [8] "Chol" termini qadimiy turkiy tilde bo'z rang, kul rangni bildirgan. Mo'yin, aynnan bo'yin, avlod, bo'lim ma'nosida qo'llanilgan. Qipchoqlar tarkibida qoramo'yin, ko'kmo'yin urug'lari bo'lgan. Shu Orinda Zarafshon vohasi hududida To'qqizariq, To'g'izboy kabi toponimlar ham uchraydi. Ma'lum bo'lishicha to'quz yoki to'g'izboy qipchoq qabilasi urug'laridan hisoblanadi. Tog'aytma etnonimi ham ayni shu asnoda kelib chiqqan. Tog'ay kishi ismi. Tama (toma) 92 bovli o'zbek urug'lari ro'yxatida uchraydi. S. Qorayev tama aslida mo'g'ul qabilasi bo'lib, Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibiga kirgan va XV-XVI asrlarda Movarounnahrqa (asosan Zarafshon vodiysiga) va Xorazmga kelib o'rtnashgan, deydi. [9] Qipchoqlar qabilasidan yana bir urug'ning nomi joy nomiga aylanish farazi keltiriladi. Ushbu hudud Totkent deb atalgan. Gap shundaki Totkentning kelib chiqishida bir necha farazlar bo'lib, ular orasida K. Shaniyazovning keltirgan mantig'I ham alohida o'ringa ega. Jumladan, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarini nashrga tayyorlaganlar quyidagilarni yozishadi "Sayyid Jaloliddin Kosoniy (1542-1549-yillar o'rtasida vafot etgan) manoqibida aytishilishicha, Totkand Samarqanddan Buxoroga

boradigan yo'l ustida joylashgan mavze. Buxorodan Zominga boradigan yo'l ustidagi beshinchi mavzedir... uning aniq o'rnini belgilab bo'lmadi", deb ko'rsatiladi.[10]

Professor B. O'rinboyev bu nomni tot-tosh va kent-qishloq so'zlaridan tashkil topgan deb ko'rsatadi. M. Koshg'ariy asarida "tot" so'zi ikki ma'noda, ya'ni fors tilida so'zlashuvchilar va islomni qabul qilmagan uyg'urlarni bildiruvchi so'z sifatida ko'rsatilgan.[11] Tot so'zi hozirgi kunda fors tilida so'zlashuvchi unchalik yirik bo'lmagan xalq nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bizningcha, mazkur nomning tosh so'ziga aloqasi yo'q. Ehtimol, o'tmishda bu yerda yashagan aholi nomi toponimining yuzaga kelishiga ta'sir qilgan. Ehtimol, o'tmishda bu yerda yashagan aholi nomi toponimining yuzaga ta'sir qilgan. Harholda, viloyatimizda uchrovchi O'zbekkent, Mo'g'ulkent, Tojikqishloq, Arabqishloq shaklida shaklidagi toponimlarning ko'plab uchrashi turli xalqlar nomi geografik nomlarning yasashida faol ishtirok etishidan darak beradi.

K. Shaniyazovning dala tadqiqotlari materiallarida Farg'ona vodiysida yashagan qipchoq qabilasining qiziloq urug'i qayd qilinib, mazkur urug' tarkibidagi qo'ng'irboy, toti yoki tot, jetkan, xurmachi, ko'chichi, biylo tarmoqlari haqida ma'lumotlar yozib olingan. Demak, Totkent "totlar qishlog'i" ma'nosida bo'lib, etnotoponimdir. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Samarqand viloyati Metan rayonidagi Qo'shrabot hududiga tegishli Toti qishlog'i qayd etilgan.

Xususan bundan tashqari O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'atida qipchoqlar asosida shakllangan etnonimlar va toponimlar haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Arnaqapchig'ayni misol keltirib o'tish mumkin. Ushbu hudud 1926-yilgi aholi punktlarida ro'yxatda qays qilingan. Arna-xorazmiy tilida katta kanal, daryodan qazib chiqazilgan va katta hajmda suv oqizilgan anhor. Xorazm shevalarida arna-ulkan kanal, anhor. Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarining qipchoq lahjali aholisi nutqida arna so'zi mavjud, xususan, tog'li hududlarda bu atama saqlangan. Tovush shakli-arna, orna ko'rinishadir. Ma'nosi-yog'in va tabiiy suvlar o'yib ketgan jarsimon o'yi. Arna-soy, dara tubi. Xalq dostonlarida otning arnadan irg'ib sakrab o'tishi ko'p tasvirlangan. Qashqadaryoning tog'li hududlarida yoki Kosondan jarsimon suv havzasi ma'nosida qo'llaniladi.[12]

Shuningdek Samarqand viloyati Poyariq tumanida Ayuchi nomli qishloq joylashgan. Ayuchi – dash-ti-qipchoq urug'i bo'lib, o'zbek va qirg'izlar tarkibiga kirgan. Zarafshon qipchoqlarining nomlaridan biri ham ayuvchi – ayuchi deb nomlanadi.[13] Shuningdek, Jizzax viloyatida Bag'anali qishlog'i ham mavjuddir. Ushbu toponim ham qipchoqlar tarkibidagi urug' nomiga borib taqaladi. Bag'anali etnonimi qoraqalpoq qabilasining qipchoq, qozoq qabilasining argin va nayman, o'zbek qabilasining yuz tarkibi-da qayd etilgan. Yana bir qiziqarli ma'lumot shundaki Samarqand viloyatining Urgut tumanida Javgut yoki Javgut algali nomli qishloq bor. Professor B.O'rinboyev Javtuk qishlog'i etimologiyasi haqida to'xtalar ekan, "jav, jabi" o'zbek millati tarkibiga kirgan qadimiy urug'. "Tug'" so'zining "nog'ora, xon huzurida chalinadigan baraban, bayroq, dam olib o'z tug'ini tikkan joy, to'g'on" kabi ma'nolari bor. Javtug – jobi urug'i vakillarining o'z tug'ini tikkan joy demak", – deb qayd qiladi.

Rus olimi A.D.Grebenkin o'zi yiqqan dala materiallariga asoslanib, "algali" ming qabilasining tarmoqlaridan biri ekanligini ko'rsatib o'tgan edi. Muallif ming qabilasi uch katta uruqqa – To'g'ali, Bog'lon va uvoqtamg'aliga bo'linishi-ni ko'rsatib, uvoqtamg'alilarning yana algali, chavutjayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyikxo'ja va yarat tarmoqlari borligini qayd qiladi.[14]

Mazkur urug' tarmoqlarining keyinchalik etnotoponimlarga aylanganligini kuzatamiz. Urgut tumanidagi O'ramas (Paxtachi tumanida ham shu nom-dagi qishloq bor), Algali (shuningdek, Javtuk Algali ham) shu yo'l bilan hosil bo'lgan.

Tilshunos K.Marqayev Janubiy O'zbekiston etnonimlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida Chiroqchi tumanida yashovchi qipchoqlarning Qirqoyoq urug'idagi bir tarmoq chavtik, chavtak deb atalishini qayd qiladi. Chovtik ("chav, jov, jovli") – (shumovka) cho'mich ma'nosida bo'lib, urug' tamg'asi chovli (cho'mich) shaklida bo'lgan, deb ko'rsatadi. Chovli nom-li qishloq Ishtixon tumanida ham bor. Bu chovli etnotoponimi areali keng ekanligini ko'rsatadi.

Bizningcha, Javtuk Algali qishlog'i nomi etnotoponim bo'lib, Algali urug'ining Javtuk tarmog'i yashaydigan joy demakdir. Qishloqning g'arbiy tomonida Cho'michli nomli qishloq ham bor. O'zbek qabilalaridan qipchoq, qo'ng'iroq, nayman va boshqalar tarkibida "cho'mich, cho'michli" so'zi bilan bog'liq etnonimlar ko'p.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki Kereyit nomli o'zbek urug'i asli kelib chiqishi mo'g'ullarga

mansub urug' hisoblanadi. Keyinchalik o'lkamizga kelib o'rnashadi. Bu nom bilan ataluvchi joy nomlariga duch kelamiz. Aynan Qipchoqlar kirib kelishi bilan kereyitlar tarmoqlashib borgan. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qish-loq. Kerayitlar o'zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan yirik etnik guruhlardan biridir. Kerayit, kerey, kareit, kirey deb yuritiluvchi etnonim qozoq, qirg'iz, oltoy, tuva, boshqird, no'g'ay, buryat, mo'g'ul xalqlari tarkibida uchraydi.

Kerey etnonimi o'zbek va qoraqalpoqlar tarkibida kuzatiladi. Qoraqalpoqlarning qo'ng'irot arisi(tarmog'i)da ashamayli urug'i bor. Ashamayli, ocha-maylilar o'zbek-qo'ng'irotlari tarkibida ham mavjud. O'zbek-laqaylarning Esanxo'ja urug'ida Oqsari tarmog'i bo'lib, bu qozoq-kereylarning urug'lari-dan biridir. Bu holat harbiy yurishlarda kereylarning bir qismi Movaroun-nahrga ko'chib kelib, bu yerdagi aholi bilan aralashib ketganligini ko'rsatadi.

Kerey qabilasi ikki asosiy urug' – Ashamayli va Abaqqa bo'linadi. Asha-maylilar XIII asrda G'arbiy Oltoydan Irtishning quyi oqimi bo'ylab va undan g'arb tomon siljigan, Abaqlar esa o'z yerlarida – Janubi-G'arbiy Oltoy, Qora Irtish, Kenderli daryosi vodiysi va Saur tog'larining janubi-sharqiy yonbag'irlarida yashab qolgan. Ashamayli etnonimi "Tuya egari shaklidagi (X) tamg'a (ashamay)" nomi bilan bog'liq. Ashamaylilarning asosiy urug'lari Oqsari va Ko'rsari hisoblanadi. Kereylar o'rta asrlarda (X–XI), mo'g'ullarga qadar o'z davlatiga ega bo'lganlar va buyuk Xitoy devoridan boshlab Onon, Qurilen daryolari, Dolon tog'lari, Dalaynor ko'li, Arg'un daryosi sohillari bo'ylab katta hududda yashaganlar.

Mo'g'ullarning jabri tufayli (XII asr) kerayit qabilasi o'z ona yurtidan ko'chishga majbur bo'lgan. Bir qismi Oltoyda qolgan. Kereyitlarning ma'lum qismi XIV asrda Dashti Qipchoq o'zbek qabilalariga qo'shilgan, keyinchalik ular bilan birgalikda Sharqqa qarab yurish qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Hozirgi O'zbekiston hududiga ular XV–XVI asrlarda kelib o'rnashganlar. Kerey etnonimi va bu nom bilan ataluvchi qabilaning kelib chiqishi haqida fikr yuritgan. N.Aristov, X.Xovorslar ularni turkiy tilli etnik guruhga mansub deb ko'rsatsalar, V.V.Bartold kereylar mo'g'ullardan bo'lgan, deb hisoblaydi. Rashididdin "kerey" so'zining etimologiyasi haqida to'xtalib, qadimgi davrda bir podshoning yettita (sakkizta) o'g'li bo'lganligi va ularning ham-malari qora bo'lganligi uchun kereyitlar deb atashganligini yozadi. Uning aytishiga ko'ra, "kerayit" so'zining ma'nosi "qora odam". Ushbu so'zning "qora quy" degan talqini ham bor. Venger olimi Y.Nemet o'zining "Kereyit, kerey, giroy" nomli maqolasida kerey atamasi vengercha "ker" hamda turkiycha "ker" (yuqori, yuksaluvchi) so'zlaridan olinganligini yozadi. Vengerlar ichida "ker" deb nomlanuvchi toifa ham bor. A.Abdurahmonov ham ker so'zi qadimgi turkiy tillarda "tog'", "qir", "tog' tizmasi", "tog' boshi" kabi ma'nolarda qo'llanganligiga bir necha tarixiy lisoniy dalillar keltiradi. Biroq ko'pchilik olimlar mo'g'ullarning kirey (kireyit, kereyit) qabila-si nomi "qarg'a" ma'nosidagi kerey so'zidir, deb izohlaganlar. Kereyit qabilasining mo'g'ulcha nomi xereyed. Demak, kerayit etnonimi mo'g'ulcha "qarg'a" totem nomidan kelib chiqqan bo'lib, kerey – "qarg'a", -t affiksi esa ko'plik ma'nosini bildiruvchi "lar" qo'shimchasidir (Otajonova, 1987). Hozirgi paytda o'zini kerayit deb hisoblovchi etnik guruh o'zbeklar orasida uchra-maydi. Ular mang'it, saroy, kenagas va boshqa qabilalar tarkibiga qo'shib, qorishib ketganlar. Kerayit O'zbekiston Respublikasi hududida ko'p tarqalgan so'z. Barcha tumanlarda, asosan, qishloq nomi sifatida uchraydi. Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Koson, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Qamashi, Kasbi tumanlarida Kerayit qishlog'i bor. Viloyat hududida Kerayit degan mahalla, guzarlar ham bor. Yakkabog' tumanida bir tepaning nomi – Kerayittepa. Sho'rolar tuzumi davrida Kitob va Shahrisabz tumanlarida Kerayit qishloqlari nomi tuman, viloyat ma'muriyati tomonidan rasmiy tarzda o'zgartirilgan: Kerayit – Kel-dihayot (Kitob tumani). Kerayit – Kelhayit (Shahrisabz). Bu nomlar yirik qishloqlar nomi bo'lganligi sababli Keldihayot, Kelhayit tarzida "O'zbek sovet ensiklopediyasi"ga kiritilgan.[15] Bugungi kunda ko'plab viloyatlarda Oytamg'ali nomli toponimga duch kelamiz. Vaholangki qipchoq urug'lariga borib taqaluvchi ushbu joy nomi Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani, Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani, Samarqand viloyati Narpay, Poyariq tumanlari, Jizzax viloyati Forish tumani hududlaridagi qishloq nomi. Mazkur qishloqlar-da sarixitoy urug'iga mansub aholi yashashiga ko'ra, oytamg'alilar xitoy qabi-lasi tarkibida ham bo'lsa kerak. Oytamg'alilar do'rmon, qipchoq, qurama, qo'ng'irot kabi o'zbek qabilalari tarkibiga kirgan urug'. Urug' tamg'asi yangi oy (taqa) shaklida bo'lgani uchun oytamg'ali deb atalgan. Oytamg'ali nomi bilan atalgan qish-loqlar Narpay, Poyariq tumanlarida ham uchraydi. Jizzaxning Zomin tumanida Parchaqipchoq nomli qishloq mavjuddir. Ushbu toponimning qipchoq urug'I va lahjasiga ko'p aloqadorligi uchraydi. Toponimning birinchi qismi parcha- forsiy bo'lgani bilan bu urug' birlashmalarga nisbatan qo'llanilgan. Jumaladan, u kichkina qismni yoki urug'-qabila ittifoqlari yoki kat-ta o'tmish qabilalarining qoldiqlarini

ifodalashi mumkin. Agarda shunday bo'lsa, parchaqipchoq qipchoq bo'lmagan urug' va qabilalar hamda qator qipchoq qismlarini birlashtiradi. Bu xususida parchaqipchoq birlashmasiga kiradigan urug' nomlari va ularning tarkibi guvohlik beradi.[16]

Samarqand viloyati Pastdarg'om, Urgut tumanlaridagi qishloqlar orasida Qing'ir nomlisiga duch kelamiz. Mazkur nom O'zbekiston toponimiyasida Qang'ir, Qing'ir, Qo'ng'ir singari shakllarda uchraydi.

L.S.Tolstovanning fikriga ko'ra, mazkur nom pecheneglar qabilasi qang'arlari bilan bog'liq bo'lib, ularning Markaziy Osiyoga tarqalishi Orolbo'yi va Volgabo'yi qang'arlarining Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibida mazkur hududga kirib kelishlari bilan bog'liq[17].

Zarafshon toponimlari orasida Qipchoq Chorrabot nomli hudud ham bizga ma'lum. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qish-loqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar Quyi Chorrabot deb atalgan. 2006-yil 27-dekabrda Qipchoq Chorrabot deb o'zgartirilgan.

Toponim qipchoq, chor va rabot so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – qipchoq so'zi xalq nomi, etnonim. Toponimning ikkinchi komponenti – chor so'zi esa forscha-tojikcha bo'lib, "To'rt" degan ma'noni bildiradi. Joy nomining uchinchi komponenti – rabot so'zi "qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy" degan ma'nolarni anglatadi.

Xulosa. Bular tashqari qipchoqlar va qipchoq lahjasi Movarounnahr hamda Turkiston o'lkasiga siyosiy, ijtimoiy hamda etnik jihatdan juda katta ta'sir qilgan. Aynan qipchoqlar tili o'zbek tili fonetikasiga, uning tarkibidagi urug'lar nomlari esa toponimlarga omuxtalashib ketgan. Bu holat nafaqat Zarafshon hududida balki Xorazm hamda Farg'ona vodiysida ham ko'zga tashlanadi. Qipchoqlarning ham madaniy ham etnik jihatdan transformatsiyasi ko'p jabhalarda ko'zga tashlanib boradi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Xondamir. Habib us-Siyar. 3-jild, 3-qism. 213-bet
2. Fazlulloh ibn Ro'zbehxon. Mehmonnomayi Buxoro. 72-bet.
3. Azamat ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. 243-bet.
4. Mukimova. R. G. K istorii agrarnix otnosheniy v Uzbekistane XVI v. Vakfname. Tashkent, 1966, st. 288
5. С.А.Амонжулов, Вопросы диалектологии и истории казахского языка, Алма-Ата, 1959, 16-bet
6. Samarqand toponimlari. 101-bet
7. S. Qorayev Toponimika. 1978. 168 bet
8. Шаниязов, 1974. Ст. 123-125
9. S. Qorayev. 1978. 119-bet
10. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1999. 399-bet.
11. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk. 1965. 427-bet.
12. O'zbekistonning joy nomlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti. 2022-yil. 31-bet
13. К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974. С. 123
14. Гребенкин А.Д. Мелкие народности Зерафшанского округа. – СРТ. Вып. II, 72. Ст. 42
15. Узбек совет энциклопедияси. 5-жилд. – Т.: – В. 425, 428.
16. К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974
17. Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии и её исторической ономастике // Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978. Ст. 15